



LOGISTIKA TERMINOLOGIK TIZIMINING XITOIY TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

MIRZAMUKHAMEDOVA Iroda

+99899813061

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Xitoy tilidagi logistika terminologik tizimining shakllanish jarayoni, uning tarixiy bosqichlari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Logistika iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ushbu sohada ishlatiladigan terminlarning paydo bo'lishi tilshunoslik va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni namoyon etadi.

Аннотация: В данной диссертации анализируется процесс формирования терминологической системы логистики в китайском языке, ее исторические этапы и современные направления развития. Логистика - одна из важных отраслей экономики, и появление терминов, используемых в этой области, демонстрирует взаимосвязь между лингвистикой и экономическим прогрессом.

Annotation: This thesis analyzes the process of formation of the logistic terminological system of the Chinese language, its historical stages and directions of modern development. Logistics is one of the most important sectors of the economy, and the emergence of terms used in this area demonstrates the interconnection between linguistics and economic progress.

Xitoyda logistika atamasi (“物流”, wùliú) XX asrning o'rtalarida ilmiy muomalaga kirgan. Biroq, logistika faoliyatiga oid amaliy tushunchalar qadimiy



davrlardanoq mavjud bo'lib, ular “货运” (huòyùn – yuk tashish), “供销” (gōngxiāo – ta'minot va savdo) kabi so'zlar orqali ifodalangan.

“Logistika” so'zi barcha asosiy Yevropa tillarida mavjud, ammo ulardan har xil ma'nolarda foydalanadilar. “Logistika” atamasidan mashhur olimlar, faylasuflar, sarkardalar o'z asarlarida foydalanganlar. Buyuk nemis matematigi G.V.Leybnis (1646-1716) bu atamadan “Xulosalami hisoblash” yoki matematik mantiq ma'nosida foydalangan. XIX asrda bu atamadan kelib chiqishi shveytsariyalik bo'lgan taniqli harbiy nazariyachi va tarixchi Ar.tuan Anri Jomnin (1779-1869) o'z asarlarida foydalangan. 1813-yildan boshlab u Rossiyada Aleksandr I ning shtabida ishlagan, 1826-yilda infanteriya general i unvonini olgan. Nikolay I ning harbiy maslahatchisi bo'lgan va Sankt-Peterburgdagi harbiy akademiyaning asoschilaridan biri bo'lgan (1828). Shahzoda Aleksandr II ning shaxsiy o'qituvchisi

bo'lgan, haqiqatan ham uning uchun muallifning logistika bo'yicha eng muhim asari yozilgan va keyinchalik u ko'pgina tillarga tajjima qilingan.

Logistika terminologiyasining rivojlanishi quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Dastlabki bosqich (1949–1978 yillar):

Bu davrda “logistika” termini hali keng qo'llanilmagan, asosan harbiy va transport sohalarida ishlatilgan.

2. Iqtisodiy islohotlar davri (1978–2000 yillar):

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida logistika faoliyatiga oid terminlar faol ravishda Xitoy tiliga kirib keldi. “仓储管理” (omborxona boshqaruvi), “配送系统” (taqsimot tizimi) kabi terminlar shakllandi.

3. Globalizatsiya va zamonaviy davr (2000 yildan hozirgacha):



Xalqaro terminlar (masalan, “供应链管理” – supply chain management) Xitoy tilida keng ishlatila boshlandi. Shu bilan birga, milliy terminlar yaratish va ularni standartlashtirish jarayoni kuchaydi.

Bugungi kunda Xitoy logistika terminologik tizimi xalqaro standartlarga moslashgan, lekin o'zining milliy-lingvistik xususiyatlarini ham saqlab qolgan.

Xulosa:

Xitoy tilidagi logistika terminologiyasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, texnologik taraqqiyot va xalqaro integratsiya bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib, hozirgi kunda mustaqil terminologik tizim sifatida qaror topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev, Q. A. (2007). Logistika. *Iqtisod-Moliya Toshkent-2007* [236-b].
2. Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268
- Qodirjonov, X. (2025). XITOY–QIRG 'IZISTON–O 'ZBEKISTON YANGI TRANSPORT YO 'LAGI DOIRASIDA ANDIJON VILOYATIDA LOGISTIKATERMINALI QURILISHI: STRATEGIK IMKONIYATLAR. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(14), 36-38.
4. Xue Feng, Research on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Thesis, Liaoning Normal University, 2009